

BANK KAPITALINI BOSHQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Sadullaev Diyorbek Davronbek o'g'li

Milliy bank xodimi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bank kapitali hamda uni boshqarish amaliyotini takomillashtirish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Bozor munosabatlari, bank-moliya, bank tizimi, bank kapitali, islohot, iqtisodiyot, kapitallashuv*

Bozor munosabatlari sharoitida bank-moliya tizimining ahamiyati tubdan o'zgarib, boshqarish sohasi davlat tomonidan olib borilayotgan siyosat bilan uyg'unlashgan holda ko'proq bank-moliya tizimiga yuklatiladi. O'zbekiston bank tizimini isloh qilish, uni erkinlashtirish va jahon andozalari talablariga mos holda shakllantirish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Bunday ishlarni amalga oshirish uchun respublikamiz bank tizimini har tomonlama mukammal rivojlantirishga asos yaratildi va islohotlar amalga oshirilmoqda.

Har qanday bank tizimining barqarorligini, to'lovga qobiliyatligini va ishonchligini ta'minlashda, bank aktivlarini o'stirishda bank kapitali muhim vosita bo'lib hisoblanadi. Faqatgina yetarlicha miqdorda barqaror kapitalga ega tijorat banklari aktiv operatsiyalarini erkin amalga oshirishlari, talab etilgan darajada likvidlikni doimo saqlagan holda samarali faoliyat yuritishlari hamda moliya bozorlariga erkin chiqish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bank tizimining barqarorligini yanada mustahkamlash, banklarning kapitallashuv darajasini, ularning resurs bazasini yanada oshirish orqali bank kredit tizimining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash, banklarning iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonlaridagi ishtirokini faollashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tijorat banklari kapitalining iqtisodiy mazmunini to'liq anglab etish va uning amaliyotdagi ahamiyatini tushunish bank kapitalini samarali boshqarishda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ham xronologik tarzda saqlanib kelayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida, aynan, tijorat banklari kapitalini samarali boshqarilishi va bank kapitalining yetarliligini ta'minlamay turib mijozlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchini qozonish mushkul vazifa ekanligi yana bir bor o'z tasdig'ini topmoqda.

Birinchi Prezidentimizning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" deb nomlangan asarida global moliyaviy inqirozning salbiy oqibatlaridan saqlanishda tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish, ularning iqtisodiyotning real sektoriga ajratmalarini qo'llab-quvvatlash, bank ishini yanada rivojlantirish masalalariga katta e'tibor qaratildi. Natijada so'nggi yillarda respublikamizning qator yetakchi banklarining kapitallashuv darajasi oshirilgan edi. Mazkur sohada olib borilgan ishlar natijasida bank tizimi kapitalining yetarlilik darajasi umumiy ko'rsatkichi umumiy qabul qilingan xalqaro standartlarga nisbatan 3 barobar yuqori bo'lishi ta'minlandi. Bu, o'z navbatida, mazkur banklar tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga kreditlar ajratish imkoniyatini kengaytirdi.

Tijorat banklarining minimal kapitaliga qo'yiladigan talablarning ortishi bilan bir vaqtda tijorat banklarining salmog'i keskin kamayishi kuzatilishi jahon tajribasidan ma'lum. Qolaversa, tijorat banklari tomonidan yo'l qo'yiladigan iqtisodiy me'yorlarining buzilishiga oid xatolarning aksariyati bank kapitali yetarliligi va ularning majburiyatlari bilan bog'liq. Bunday sharoitda bank nazorat organlari tomonidan nazorat sezilarli darajada kuchaytirilishi talab etiladi. Xalqaro bank amaliyoti tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bank kapitali yetarliligini ta'minlamasdan turib banklarning to'lov qobiliyatini mustahkamlash va aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini saqlab turish mushkul vazifa hisoblanadi. Tijorat banklari "kapitalining yetarliligi" deganda, odatda bankning to'lovga qobilligi va likvidligini ta'minlash imkonini beradigan kapitalning zaruriy minimal darajasi tushuniladi.

1 Markaziy bank har bir bankning va umuman, bank tizimining barqarorligini ustav kapitali hajmi bilan bog'laydi va ustav kapitalining eng kam miqdorini belgilaydi. "Kapital yetarliligi" termini o'zida bankning ishonchliligiga umumiy bahoni ifodalaydi. Unga ko'ra respublikamizda ustav kapitali yetarliligi kelgusi yillarda ham oshirilib, jahon standartlariga yetkaziladi. Shu bilan birga, tijorat banki asosiy kapitalining yetarlilik miqdori ularning faoliyatiga nisbatan qo'llanilayotgan iqtisodiy normativlarni aniqlashda ham asosiy iqtisodiy mezon bo'lib hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, tijorat banklarining regulyativ kapitali tarkibini o'rganib chiqsak madsadga muvofiq bo'ladi. Regulyativ kapital — bank faoliyatini tartibga solish va iqtisodiy me'yorlar hisob-kitobini amalga oshirish maqsadida hisoblash yo'li bilan aniqlanadigan bank kapitalidir.

2. Regulyativ kapital I darajali kapital va II darajali kapitalning yig'indisidan iborat.

Tijorat banklari kapitali bank boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning zarurligi - bank amalga oshirayotgan aktiv faoliyatda hamda operatsiyalar miqdorida bilinadi. Bank kapitali aktiv operatsiyalar orqali iqtisodiyotga joylashtirilgan miqdoridan daromad shakllanadi. Chunonchi, bank kapitali qancha ko'p bo'lsa, daromadi ham ko'payadi. Banklarda kapital hisobini tashkil etish asoslari xalq xo'jaligi turli tarmoqlariga qarashli korxonalar va tashkilotlarning buxgalteriya hisobi asoslari bilan deyarli o'xshash.

Har qanday bank tizimini barqarorligini, to'lovga qobilligi va ishonchliligini ta'minlashda, bank aktivlarini o'stirishda bank kapitali muhim vosita bo'lib hisoblanadi. Bazel I bo'yicha kapitalning yetarliligi ko'rsatkichining etishmasligi shundaki, u faqat kredit tavakkalchiligiga yo'naltirilgan, aktivlar xavf darajasi bo'yicha yetarlicha farqlanmagan (bozor xavfi hisobga olinmagan) va ma'lum turdagi tavakkalchilik operatsiyalari uchun zaxiralarni yaratish talablari kam baholangan. Iqtisodchi olimlarimiz A. Bektemirov., A.A. Omonov., Z.Sh. Xaydarov, Z.D. Niyozovlarning ta'kidlashlaricha tijorat banklari kapitalini oshirish manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Tijorat banklari oddiy va imtiyozli aksiyalari bozor bahosining o'zgarish omili;
2. Aksiyadorlarni ustav kapitalini shakllantirish bo'yicha majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish omili;
3. Bank aktivlari riskka tortilgan miqdorini o'zgarish omili;
4. Bank kapitali yetarliligi sharoitida uning likvidligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan likvidli aktivlar mavjudligi omili.

Bank kapitalini boshqarish amaliyotini takomillashtirish uchun quyidagi maslahatlarni taklif qilaman:

1. Risk boshqaruvini mustahkamlash: Bankning risk boshqaruviga to'g'ri kelib chiqish uchun kompetentlik va tajriba talab etiladi. Risklarni ta'limli vaqtlarda aniqlash va tahlil qilish, ko'rsatma berish va kafolatli jarayonlarni o'rnatish kerak.

2. Boylik bilan portfelning kattalashtirish: Bank kapitalini kattalashtirish uchun boylik bilan portfelning diversifikatsiya qilish tavsiya etiladi. Bu, kapitalni turli ma'muriyat turlariga, sozlamalar va moliyaviy turli ob'ektlarga kiritish orqali riskni sezilarli tarzda bo'lishga yordam beradi.

3. Tubdan tashqaridagi yangiliklarni takomillashtirish: Bankning kapital boshqarishida, moliyaviy turli masalalarni alohida qo'llab-quvvatlashni talab etadigan tubdan tashqaridagi yangiliklarning kuzatishi kerak. Bankni yaxshi tahlil, prognozlash va strategiya qilish imkonini oshirish uchun ilmiy tadqiqotlarga, savollarini yechish uchun ruxsatnomalarni, texnologiyalarni va ilg'or ishlab chiqishni muvaffaqiyatli joriy qilish.

4. Tashqi moliyaviy mudofaa tizimlarini rivojlantirish: Bankning kapitalini rivojlantirish uchun, oliy sifatli tashqi moliyaviy mudofaa tizimlarini tutish tavsiya etiladi. Bu, bankga moliyaviy risunok va qonunlardagi o'zgarishlardan qarshi tashqi asosiy moliyaviy xususiyatlar orqali xavfsizlik ta'minlashga yordam beradi.

5. Moliyaviy mas'uliyat transparensiyasini oshirish: Bankning moliyaviy mas'uliyati haqida ommaviy va moliyaviy tashkilotlarga to'liq ma'lumot berish, savdochi va investorlarga ishonch hosil qilish uchun moliyaviy mas'uliyat transparensiyasini oshirish talab etiladi.

6. Xalqaro moliya standartlarini qabul qilish: Bankning kapitalini boshqarish amaliyotini takomillashtirishda xalqaro moliya standartlarini qabul qilish muhimdir. Ushbu standartlar moliyaviy hisob-kitob, hisob-kitob tizimlari, kapital va risk boshqarish kabi muhim sohalarda yaxshi amaliyot va ko'rsatkichlarni ta'minlaydi.

Bank kapitalini mukammallashtirish uchun bu maslahatlarni amalga oshirish zarur. Uzoq muddatda ham, banklarni kapitalni o'rganish, moliyaviy boshqarish va risk boshqaruvini takomillashtirishda katta professional tajriba talab etiladi.

Bank kapitali tijorat banki faoliyatida vujudga keladigan iqtisodiy tanglik hamda ziddiyatli vaziyatlar sharoitida xavfsiz "moliyaviy yostiq" vazifasini bajarishi bilan birga, bank kutilmaganda moliyaviy qiyinchilik va yo'qotishlarga duch kelganda unga to'lovga qobiliyati darajasini saqlab qolish va faoliyatini davom ettirish imkoniyatini beradigan moliyaviy manba hisoblanadi. Xalqaro va mahalliy bank amaliyotida bank kapitali yetarliligi uning riskka tortilgan aktivlariga nisbatan aniqlanadi. Bank kapitalining hajmi riskka tortilgan aktivlarga nisbatan judayam past bo'lishi uni inqiroz holatiga tushib, turli xizmatlarni ko'rsatish va hisob-kitoblarni amalga oshirilmay qolishiga olib kelishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli farmoni, 2020 yil 12 may

2. Shodmonov I.S.” Bankning kredit siyosatini takomillashtirish”. "Экономика и социум" №10(89) 2021. 268-b.
3. Bektemirov A., Omonov A. A., Xaydarov Z. Sh., Niyozov Z .D. “Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish” fanidan o‘quv qo‘llanma. –Samarqand: SamISI, 2020. 240 bet
4. Xo`jayorov Hayot Baxtiyorovich. “Tijorat banklarida kreditlash xizmatlari samaradorligini oshirishning mohiyati va iqtisodiy ahamiyati”. Banklar va moliya bozori / banki i finansovye rinki. 2022, 5(153). 33-b
5. Курбанов, Р. (2022). Банклар капиталлашув даражасини оширишнинг долзарб масалалари. Экономика и образование, 23(4), 96-101
6. Abdullayeva Sh., Omonov A. “Tijorat banklarining kapitali va uni boshqarish” Monografiya T.: “Iqtisod-moliya”. 108 b.
7. Абдуллаев Ё., Крралиев Т., Тошмуродов Ш., Абдуллаева С. Банк иши. Укув кулланма-Т.: "IQTISOD-MOLIYA”